Sud muayyan maʼmuriy huquqbuzarlik uchun maʼmuriy jazo chorasi va turini belgilashda maʼmuriy jazo qoʻllanishining umumiy qoidalariga amal qilishi lozim, unga binoan jazoni qoʻllash chogʻida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va ogʻirlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2018).

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi Oʻzbekistonni barpo etish boʻyicha xohish-irodasini roʻyobga chiqarish, har bir fuqaroga oʻz salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sogʻlom, bilimli va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim boʻgʻiniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli taʼminlash maqsadida Oʻzbekistonni yanada rivojlantirish boʻyicha "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi (President of the Republic of Uzbekistan, 2023) tasdiqlandi. Ushbu strategiyada:

– barqaror iqtisodiy oʻsish orqali daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoridan oʻrin olish;

– aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

– aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

– xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

– mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli taʼminlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Yuqoridagi strategiyadan kelib chiqib, birinchi marotaba sodir etilgan, ijtimoiy ahamiyati katta boʻlmagan maʼmuriy huquqbuzarliklar uchun yengil turdagi jazolarni qoʻllash tizimini joriy etish fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini taʼminlash yoʻlidagi yana bir qadamdir. Shu bilan bir qatorda, bu jamiyat ravnaq topishi va huquqbuzarliklarning takror sodir etilishining oldini oladi. Qolaversa, ijtimoiy ahamiyati katta boʻlmagan huquqbuzarliklar uchun jazoni yengillashtirish fuqarolarda adolatli davlatga boʻlgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

**Metodlar**

Tadqiqotda huquqiy tahlil va qiyosiy-huquqiy metodlar qoʻllandi. Sohaga doir tushunchalarga aniqlik kiritildi, maʼmuriy ogohlantirish instituti boʻyicha xorijiy va ma-

halliy olimlarning fikri oʻrganildi. Ma'muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi amaliy misollar koʻrib chiqildi.

**Natijalar**

Avvalo, ma'muriy jazo nima ekanini bilib olish lozim, chunki jazo fuqarolarni ma'lum turdagi huquqbuzarliklar sodir etishdan ogoh etib, qonunlarga hurmat ruhini oshiradi.

Jazo – ayb yoki jinoyati uchun koʻriladigan chora. Qilmishiga yarasha koʻriladigan oqibat, toʻlanadigan tovon (Madvaliyev, 2008).

Jazoni huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qoʻllanadigan ma'naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bogʻliq boʻlgan majburlov chorasi deb koʻrish mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 22-moddasida (Republic of Uzbekistan, 1994) "Ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi boʻlib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning oʻzi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qoʻllanadi", deyilgan.

Ma'muriy jazo maqsadiga koʻra ma'muriy majburlov choralarining bir turi hisoblanadi. Ma'muriy jazo ma'muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda huquqbuzar tomonidan ma'muriy qonunchilik hujjatlari bilan qoʻriqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgandagina qoʻllanadigan oʻziga xos maqsadga ega jazo sanksiyalari boʻlib, ma'muriy-protsessual tartibda amalga oshiriladi. Ma'muriy jazo Oʻzbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi bilan, ma'muriy majburlovning boshqa choralari esa turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi (Xamedov & Muxamedov, 2017).

Huquq nazariyasiga murojaat etganimizda, ma'muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar uchun ma'muriy ogohlantirish jazosini qoʻllash masalasidagi ba'zi jihatlar bir qator huquqshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, ma'muriy ogohlantirish masalalari D.N. Baxrax, Y.M. Kozlov, A.P. Korenev, B.M. Lazarev, I.I. Veremeyenko, X.T. Odilqoriyev, B.E. Ismoilov, Sh.H. Qodirov, A.A. Rahmonqulov va boshqalarning ilmiy ishlarida oʻz ifodasini topgan.

Mazkur olimlarning ilmiy izlanishlarida ogohlantirishni faqat ijtimoiy ahamiyati katta boʻlmagan, birinchi marotaba sodir etilgan yengil turdagi huquqbuzarliklar uchun qoʻllash boʻyicha tushunchalar berilgan. Ma'muriy ogohlantirish instituti boʻyicha xorijiy va mahalliy olimlar fikri oʻrganilganida xorijiy olimlardan D.N. Baxrax: "Ma'muriy ogohlantirish ma'muriy jazolar tizimidagi eng yengil ta'sir chorasi boʻlib, u huquqbuzarga nisbatan axloqiy-tarbiyaviy ta'sir koʻrsatishga qaratilgan", – deya qayd etganini koʻrish mumkin (Bakhrakh, 2007).

Y.M. Kozlov (2005) bu borada: "Ogohlantirish ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan davlatning rasmiy salbiy munosabatini ifoda etadi, biroq u mol-mulkiy yoki shaxsiy cheklovlar bilan bogʻliq emas", – deydi.

A.P. Korenev (2002) esa: "Ma'muriy ogohlantirish, qoida tariqasida, kam ijtimoiy xavfli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qoʻllanadi va huquqbuzarni qonuniy xulq-atvorga yoʻnaltirishni maqsad qiladi", – deya ta'kidlaydi.

B.M. Lazarevning (1985) fikricha, ogohlantirish davlat majburlovining maxsus shakli boʻlib, u jazolashdan koʻra oldini olish funksiyasini bajaradi.

I.I. Veremeyenko esa bu jazoni: "Ma'muriy ogohlantirishni qoʻllash huquqni muhofaza qilish organlariga huquqbuzarlik takrorlanishining oldini olish imkonini beradi", – deb tariflagan (Veremeenko, 1975).

Mahalliy olimlarimizdan X.T. Odilqoriyev (2019) bu borada: "Ma'muriy ogohlantirish ma'muriy jazolar tizimidagi eng yengil ta'sir chorasi boʻlib, u asosan huquqbuzarni

jazolash emas, balki qonuniy xulq-atvorga yo'naltirishni maqsad qiladi", – deydi.

B.E. Ismoilovning (2020) fikricha, ma'muriy ogohlantirish kam ijtimoiy xavfli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llanib, davlatning huquqbuzarga nisbatan rasmiy tanbehini ifoda etadi.

Sh.H. Qodirov (2018) esa: "Ma'muriy ogohlantirishni qo'llash huquqbuzarlikning oldini olishga xizmat qiladi hamda ma'muriy jazolarni individuallashtirish imkonini beradi", – deya tushuntiradi.

Hozirgi davrda normativ-huquqiy hujjatlarni yangilashdan maqsad insonlarga zarur sharoitlarni yaratish, ularning huquq va erkinliklarini hamda insonparvarlik tamoyillarining to'g'ri qo'llanishini ta'minlash hisoblanadi.

**Muhokama**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning jazo turlariga jahon tajribasida qo'llanib kelayotgan ma'muriy ogohlantirish jazosini qo'shishni zamoning o'zi taqozo qilmoqda. Mazkur jazoni qo'shish orqali fuqarolarga bir qancha yengillik ta'minlanadi. Jumladan, birinchi marotaba ijtimoiy ahamiyati katta bo'lmagan huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslarga joyning o'zida ogohlantirish qo'llanishi kelgusida huquqbuzarlik sodir etmaslik to'g'risida ogohlantirishga olib keladi. Hozirgi qonunchilik bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik uchun faqat sud idoralari ogohlantirishi mumkin, qolgan mansabdor shaxslarga bunday huquq berilmagan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 21-moddasida: "Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda sud huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu kodeksning $308^{1}$-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi", deb ko'rsatilgan. Bu esa ma'muriy organ mansabdor shaxsi yengil turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish jazosini qo'llay olmasligi hamda ushbu turdagi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish tartibi yoki ogohlantirish shaklida yuritish tartibi belgilanmaganligi sababli barcha ishlar mazmunan ko'rib chiqish uchun Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlariga yuboriladi, demakdir. Bu esa ma'muriy organ mansabdor shaxslarning ish hajmi oshib ketishiga, fuqarolarning ovoragarchiligiga sabab bo'lmoqda.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tahlil qilganimizda 2025-yil davomida 690 879 ta (2024-yilda 613 142 ta) ish sudlar tomonidan ko'rib chiqilib, 415 531 (379 067) ta ishga jarima jazosi tayinlanganini ko'rish mumkin (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2025).

Shu bilan birgalikda davlat bojxona xizmati organlari tomonidan 2025-yil davomida 42 883 ta bojxona qonun buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar aniqlangan bo'lib, 40 702 ta holat yuzasidan ma'muriy ishlar qo'zg'atilgan. Shu bilan birga, 20 511 ta holat "E-qaror" shaklida elektron ko'rib chiqilgan hamda 23,4 mlrd so'm jarima qo'llangan.

Tahlillarga ko'ra, 12 253 ta holatda MJtKning $227^{10}$-moddasi 2-qismi bilan, 8 022 ta holatda $227^{22}$-modda 2-qismi bilan, 236 ta holatda $227^{13}$-modda 3-qismi bilan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarga asosan xorijiy davlatlarning bojxona qonunbuzilishi haqidagi ishlarni ko'rib chiqishida ogohlantirish jazosini qo'llash amaliyoti o'rganilganida ushbu turdagi jazo bir qancha moddalarga kiritilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksi (keyingi o'rinlarda MHtK

deb yuritiladi) 3.4-moddasida shunday belgilangan (Russian Federation, 2001): "Ogohlantirish – jismoniy yoki yuridik shaxsning rasmiy tanbehida ifodalangan ma'muriy jazo chorasi hisoblanadi. Ogohlantirish yozma ravishda beriladi. Rossiya Federatsiyasi xalqlarining inson hayoti va sogʻligʻiga, hayvonot va oʻsimlik dunyosi obyektlariga, atrof-muhitga, madaniy meros obyektlariga (tarixiy va madaniy yodgorliklarga) zarar yetkazilmagan yoki zarar yetkazish xavfi boʻlmagan taqdirda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, shuningdek, mulkiy zarar boʻlmasa, birinchi marta sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish belgilanadi. Ogohlantirish shaklida ma'muriy jazo tayinlash ushbu kodeks II boʻlimining tegishli moddasida yoki Rossiya Federatsiyasi subyektining ma'muriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi qonunida nazarda tutilmagan hollarda ma'muriy jarima koʻrinishidagi ma'muriy jazo ogohlantirish bilan almashtiriladi".

Ushbu jazo faqat asosiy ma'muriy jazo sifatida qoʻllanadi hamda ogohlantirish jismoniy yoki yuridik shaxsga ularning noqonuniy xatti-harakat (harakatsizlik) sodir etish ehtimoli toʻgʻrisida rasmiy yozma ogohlantirishdir. Ogohlantirish ma'muriy jazoning eng yengil turi hisoblanadi va qoida tariqasida ma'muriy jarima koʻrinishidagi ma'muriy jazoga muqobil sifatida moddaning sanksiyalarida nazarda tutilgan.

Ogohlantirish jazosi muddati ma'muriy jazo tayinlash toʻgʻrisidagi qaror ijro etilgan kundan boshlab bir yil oʻtgunga qadar davom etadigan ma'muriy jazo holatini shakllantiradi.

Rossiya Federatsiyasi MHtKning quyidagi moddalarida bojxona qoidalarini buzganlik uchun ogohlantirish jazosi qoʻllanishi koʻrsatilgan (Russian Federation, 2001):

16.5-modda. Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi;

16.6-modda. Baxtsiz hodisa yoki fors-major holatlarida chora koʻrmaslik;

16.8-modda. Bojxona nazorati ostida suv kemasi yoki boshqa suzuvchi vositalar yonida toʻxtash;

16.10-modda. Bojxona tranziti tartibiga rioya qilmaslik;

16.11-modda. Identifikatsiya vositalarini yoʻq qilish, olib tashlash, oʻzgartirish yoki almashtirish;

16.12-modda. Bojxona deklaratsiyasini topshirish yoki hujjatlar va ma'lumotlarni topshirish muddatlariga rioya qilmaslik;

16.14-modda. Tovarlarni saqlash yoki ular bilan operatsiyalarni bajarish tartibini buzish;

16.15-modda (sharhlar bilan soʻnggi nashr). Bojxona organiga hisobotlarni taqdim etmaslik;

16.19-modda 3-qismi. Bojxona protsedurasini belgilangan muddatda bajarmaslik, agarda unga nisbatan uni tugatish talabi belgilangan boʻlsa.

Qozogʻiston Respublikasi MHtKning 43-moddasida (Supreme Court of the Republic of Kazakhstan, 2016): "Ogohlantirish sud, ma'muriy jazo tayinlashga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan rasmiy ravishda berish, sodir yetilgan huquqbuzarlikka salbiy baho berish va jismoniy yoki yuridik shaxsga noqonuniy xatti-harakatlarga yoʻl qoʻyilmasligi toʻgʻrisida ogohlantirishdan iborat. Ogohlantirish yozma ravishda beriladi", deb koʻrsatilgan. Ogohlantirish faqat asosiy ma'muriy jazo sifatida qoʻllanishi mumkin (MHtKning 42-moddasi birinchi qismi) va hech qanday qoʻshimcha jazosiz mustaqil ravishda tayinlanishi kerak.

Qozogʻiston Respublikasi MHtKning quyidagi moddalarida bojxona qoidalarini buzganlik uchun ogohlantirish jazosi qoʻllanishi koʻrsatilgan (Supreme Court of the Republic of Kazakhstan, 2016):

"525-modda. Tovarlarni joʻnatish tartibini buzish (Qozogʻiston Respublikasi davlat daromad organining ruxsatisiz Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona hududidan tovarlarni olib chiqish tartibini buzish yoki Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi va (yoki) Qozogʻiston


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Respublikasining bojxona qonunchiligiga muvofiq jo‘nash uchun hujjatlarni taqdim yetmaslik). Ogohlantirish qo‘llanadi.

2.1 Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan, ma’muriy jazo qo‘llangandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir yetilsa, jismoniy shaxslar uchun – besh, kichik biznes yoki notijorat tashkilotlar uchun – o‘n, o‘rta biznes uchun – o‘n besh, yirik biznes uchun – yigirma besh oylik hisob-kitob indekslari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

535-modda. Tovarlarning bojxona deklaratsiyasi tartibini buzish

Deklarant va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvi vakili tomonidan tovarlarni bojxona deklaratsiyasi tartibini buzish, ya’ni Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi va (yoki) Qozog‘iston Respublikasining bojxona qonunchiligida bojxona deklaratsiyasi va bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi talablarga rioya qilmaslik, shu jumladan, tovarlarni bojxona deklaratsiyasi joyida dastlabki, to‘liq bo‘lmagan, davriy va vaqtinchalik bojxona deklaratsiyasi, ushbu bobning boshqa moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, ogohlantirishga olib keladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakat ma’muriy jazo qo‘llangandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir yetilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblashning yigirma besh baravari miqdorida jarimaga tortiladi.

558-modda. Qozog‘iston Respublikasi davlat daromadlari organlarining bojxona sohasidagi talablariga rioya qilmaslik

1. Bojxona sohasidagi davlat daromadlari organlari va ularning mansabdor shaxslarining talablariga rioya qilmaslik – ogohlantirish qo‘llanadi.

2. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakat (harakatsizlik) ma’muriy jazo qo‘llangandan keyin bir yil ichida qayta-qayta sodir yetilsa, bazaviy hisoblashning o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi”.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi davlatlari qonunchiligi o‘rganilganida, jumladan, Germaniya Federativ Respublikasining 1987-yil 19-fevralda qabul qilingan “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida”gi qonuni (Federal Republic of Germany, 1987) 56-moddasida “Ma’muriy organ tomonidan ogohlantirish” ko‘rsatilgan bo‘lib, “Kichik ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ma’muriy organ tegishli shaxsga ogohlantirish berishi va besh yevrodan ellik besh yevrogacha bo‘lgan miqdorda jarima solishi mumkin”, – deyilgan. Bu huquqbuzarga uning harakati yoki harakatsizligi qonunini buzish deb hisoblangani haqida rasmiy xabarnoma hisoblanadi. Maqsad qoidabuzarlik qayta sodir etilishining oldini olish va sud jarayonlari yoki murakkabroq ma’muriy jarayonlardan qochib, ishni tez hal qilishdan iborat. Ushbu jazo Germaniyada politsiya xodimi, yo‘l harakati inspektori yoki boshqa vakolatli organ tomonidan belgilanishi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi xorij tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 23-moddasiga “Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish” jazosini kiritish hamda $24^1$-moddasi sifatida *“Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish – fuqarolarga inson hayoti va sog‘lig‘iga, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlariga, atrof-muhitga, madaniy meros obyektlariga zarar yetkazilmagan yoki zarar yetkazish xavfi bo‘lmagan taqdirda, shuningdek, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, mulkiy zarar bo‘lmasa, birinchi marta sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish belgilanadi. Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish jarima ko‘rinishidagi ma’muriy jazo bilan almashtirilishi mumkin. Ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida ogohlantirish yozma ravishda beriladi”,* degan o‘zgartirish kiritish taklif etiladi.

Ogohlantirish mazkur moddalarda ko‘rsatilgan bojxona qoidalarini birinchi marotaba buzgan fuqarolarga qo‘llanadi. Agarda tovar moddiy boyliklarini olib qo‘yish nazar-

da tutilsa yoki yoʻqolishiga olib kelsa yoxud davlat manfaatlariga zarar yetkazilgan boʻlsa, ushbu ogohlantirish jazosi qoʻllanmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi MJtKning quyidagi bojxona qoidalari buzilishi bilan bogʻliq moddalariga birinchi marotaba sodir qilgan taqdirda ogohlantirish jazosini kiritish maqsadga muvofiq:

“227-modda. Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi;

227[1]-modda (1-qismiga). Bojxona chegarasini kesib oʻtganlik toʻgʻrisida yoki tovarlar va transport vositalarini Oʻzbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi toʻgʻrisida bojxona organiga xabar berish tartibini buzish;

227[4]-modda (3-qismiga). Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarining bojxona organiga topshirish uchun qabul qilingan bojxona hujjatlari yoki boshqa hujjatlarni yoʻqotish yoxud yetkazib bermaslik;

227[5]-modda. Transport vositasini toʻxtatmaslik yoki bojxona organining ruxsatisiz joʻnatib yuborish;

227[6]-modda. Bojxona nazorati ostida turgan kema va boshqa suzuvchi vositalar yoniga kelib toʻxtash;

227[9]-modda (1-qismiga). Bojxona identifikatsiyalash vositalarini oʻzgartirish, yoʻq qilish, shikastlash yoki yoʻqotish;

227[12]-modda. Bojxona organiga hisobotlarni taqdim etmaslik va hisob-kitob yuritish tartibiga rioya qilmaslik;

227[13]-modda (1-qismiga). Tovarlarni saqlash uchun joylashtirish, ularni saqlash va ular bilan operatsiyalar oʻtkazish tartibini buzish;

227[22]-modda. Tovarlarni deklaratsiyalamaslik yoki notoʻgʻri deklaratsiyalash (2-qismiga)”.

Yuqoridagi takliflar asosida milliy qonunchilik tizimiga yangi me’yorlar kiritilishidan bojxona organlarning samaradorligi va shaffofligi ta’minlash bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinligini himoya qilish maqsadi koʻzlanadi.

Biroq MJtKning 21-moddasida huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish tartibi belgilangan. Unda: “Sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli boʻlgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma’muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu kodeksning 308[1]-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi”, – deb belgilangan.

Ushbu norma huquqni qoʻllovchi organlarga bir qancha yuklama keltirib chiqargani hamda fuqarolar ovoragarchiligiga olib kelgani sababli ma’muriy organ mansabdor shaxslari tomonidan shaxsni ogohlantirish uchun ma’muriy ish sudga joʻnatilmaydi. Va aksincha, fuqarolar toʻplaydigan hujjatlar koʻpligi va ogohlantirish tizimi murakkab boʻlganligi sababli norma qoʻllanmasdan qoladi.

MJtKning 308[1]-moddasida huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish toʻgʻrisidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qoʻllash haqidagi masalani hal etish tartibi belgilangan. Unda: “Agar organ (mansabdor shaxs) ma’muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrib chiqayotganda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi toʻgʻrisida yoki ushbu kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo chorasini qoʻllash uchun asoslar borligi haqida xulosaga kelsa, ma’muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ish huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish toʻgʻrisidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qoʻllash haqidagi taqdimnoma bilan sudga yuboriladi.

Huquqbuzarlik kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomada shaxsning ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi yoki unga nisbatan yengilroq ma'muriy jazo chorasi qo'llash kerakligining sabablari va asoslari bayon etiladi.

Sud huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomani ko'rib chiqib, ushbu kodeksning 310-moddasida nazarda tutilgan qarorlardan birini chiqaradi.

Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnoma ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch sutka ichida ushbu kodeksning 303-, 304-, 306–309-moddalarida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya etilgan holda ko'rib chiqiladi", – deb belgilangan. Bu esa ogohlantirish jazosi faqat sud tomonidan qo'llanishini anglatadi.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Germaniya Federativ Respublikasining qonunchiligidagi ogohlantirish jazosini mansabdor shaxs tomonidan soddalashtirilgan tartibda qo'llash to'g'risidagi qoidalariga qo'shilgan holda milliy qonunchilikda ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish vakolatiga ega organlarning mansabdor shaxslariga ogohlantirish jazosini qo'llash vakolati berilsa, bu huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyning o'zida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish va ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida ogohlantirish jazosini qo'llash huquqini beradi. Ushbu ma'muriy ogohlantirish institutini joriy etish orqali birinchi marta kam ahamiyatli ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarni jarimaga tortish o'rniga sodir etgan qilmishining ijtimoiy oqibatlarini tushuntirgan holda ogohlantirish kelgusida bunday qilmishlar sodir etilishining oldini oladi. Shuningdek, sud tizimiga tushayotgan ortiqcha yukni kamaytirish, huquqiy tarbiya va profilaktika choralarini kuchaytirish, bojxona organlarida ham ma'muriy ishlarni tez va sifatli ko'rib chiqishga zamin yaratiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan, doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan va chet el fuqarolarning ishi tezkorlik bilan ko'rib chiqilib, qonuniy baho berilishini buning ijobiy natijasi sifatida aytish mumkin.

Bojxona sohasida huquqbuzarlik sodir etilishiga qarshi kurashish bilan huquqbuzarlikning oldini olib bo'lmaydi. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqaligina qonun buzilish holatlari kamayishiga erishiladi.

## REFERENCES


1. Bakhrakh, D. N. (2007). *Administrativnoe pravo [Administrative law].* Norma.
2. Federal Republic of Germany. (1987). *Act on Regulatory Offenses*. Gesetze im Internet. https://www.gesetze-im-internet.de/owig_1968/BJNR004810968.html
3. Ismoilov, B. E. (2020). *Ma'muriy javobgarlik [Administrative responsibility].* Academy of Legal Sciences.
4. Korenev, A. P. (2002). *Administrativnoe pravo Rossii [Administrative law of Russia].* Shchit-M.
5. Kozlov, Y. M. (2005). *Administrativnoe pravo Rossiyskoy Federatsii [Administrative law of the Russian Federation].* Yurist.

6. Lazarev, B. M. (1985). *Gosudarstvennoe upravlenie i administrativnoe pravo [State administration and administrative law].* Yuridicheskaya literatura.

7. Madvaliyev, A. P. (Ed.). (2008). *O'zbek tilining izohli lug'ati [Annotated dictionary of the Uzbek language].* National Encyclopedia of Uzbekistan.

8. Odilqoriyev, H. T. (2019). *Ma'muriy huquq [Administrative law].* TSUL Publ.

9. President of the Republic of Uzbekistan. (2023, September 11). *On the "Uzbekistan – 2030" strategy (Decree No. UP-158).* https://lex.uz/ru/docs/6600413

10. Qodirov, Sh. H. (2018). *Ma'muriy huquqbuzarliklar va javobgarlik [Administrative offenses and responsibility].* Adolat.

11. Republic of Uzbekistan. (2023). *The Constitution of the Republic of Uzbekistan.* https://lex.uz/docs/6445145

12. Republic of Uzbekistan. (1994). *Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Responsibility*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/97664

13. Russian Federation. (2001). *Code of the Russian Federation on Administrative Offenses*. ConsultantPlus. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/

14. Supreme Court of the Republic of Kazakhstan. (2016, December 22). *On certain issues of the application by courts of the norms of the General part of the Code of the Republic of Kazakhstan on Administrative Offenses (Normative Resolution No. 12).* https://adilet.zan.kz/rus/docs/P160000012S

15. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2018, November 30). *On certain issues concerning the application by courts of legislation regulating the adjudication of administrative offense cases* (Resolution of the Plenum No. 35). https://lex.uz/docs/4116801

16. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Statistical indicators on the activities of courts*. Sud.uz.

17. Veremeenko, I. I. (1975). *Administrativnaya otvetstvennost v sovetskom prave [Administrative responsibility in Soviet law].* Yuridicheskaya literatura.

18. Xamedov, I. A., & Muxamedov, O. Kh. (Eds.). (2017). *Ma'muriy huquq [Administrative law].* Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil 1-son**

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1.